

YIRINGLI-SEPTIK INFEKSIYALAR EPIDEMIOLOGIYASI: OLMAZOR TUMANI SHIFOXONALARI MISOLIDA RETROSPEKTIV TAHLIL

**Tuyeva Dildora
Matyoqib qizi**

*TDTU Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlash
menejmenti va jismoniy tarbiya kafedrasi assistenti*

**O'sarov Mardonbek
O'ktam o'g'li**

TDTU Epidemiologiya kafedrasi magistri

**Saidkasimova Nargiz
Sayfullayevna**

PhD, TDTU Epidemiologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot Olmazor tumani davolash-profilaktika muassasalarida 2024–2025 yillar davomida qayd etilgan kasalxona ichi infeksiyalarining (KII) epidemiologik holatini retrospektiv tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda sanitariya-epidemiologik xizmatning rasmiy hisobotlari, tezkor xabarnomalar, klinik va laborator tasdiqlangan holatlar ma'lumotlari asosida kasallanish darajasi, nozologik tuzilma, vaqt bo'yicha dinamikasi va epidemiologik xavf omillari baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, ayrim nozologiyalar bo'yicha umumiy kasallanish darajasi pasaygan bo'lsa-da, yiringli-septik infeksiyalar, ayniqsa yangi tug'ilgan chaqaloqlar va tug'ruqdan keyingi ayollar orasida, epidemiologik jihatdan dolzarbligicha qolmoqda. Neonatal bo'limlarda bronxopnevmoniya va pnevmoniya holatlarining ustunligi aniqlanib, mavsumiy tebranishlar bilan tavsiflandi. Shuningdek, ayrim infeksiyalarda tasdiqlanish ulushining yuqoriligi va kontaktlik koeffitsientining oshishi kasalxona ichi infeksiyalari xavfining saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Olingan natijalar Olmazor tumani shifoxonalarida epidemiologik nazorat tizimini kuchaytirish, xavf guruhlariga yo'naltirilgan monitoringni joriy etish hamda profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar:

Kasalxona ichi infeksiyalari, yiringli-septik infeksiyalar, neonatal infeksiyalar, epidemiologik tahlil, epidemiologik nazorat, Olmazor tumani, retrospektiv tadqiqot.

Olmazor tumani Toshkent shahrining aholi zich joylashgan hududlaridan biri bo'lib, uning umumiy maydoni 0,0345 km² ni tashkil etadi. Tumanda 408,1 ming nafar aholi istiqomat qilishi sog'liqni saqlash tizimiga tushadigan yuklamaning yuqoriligini hamda yuqumli kasalliklar, jumladan, kasalxona ichi infeksiyalarining shakllanishi uchun muhim epidemiologik sharoit yaratadi. Tumanda sog'liqni saqlash xizmatlari davlat va xususiy sektor tomonidan ko'rsatiladi. Davlat sektorida 4 ta statsionar

shifoxona faoliyat yuritib, ulardagi jami 886 ta shifo o'rni aholiga tibbiy yordam ko'rsatadi. Statsionar yordam hajmining yuqoriligi, jarrohlik va invaziv muolajalarning keng qo'llanilishi yiringli-septik infeksiyalarning rivojlanish xavfini oshiruvchi muhim epidemiologik omil hisoblanadi. Shu bilan birga, Olmazor tumanida ochiq manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra 71 ta xususiy tibbiyot klinikasi va tibbiyot markazi faoliyat yuritadi. Xususiy sektor ulushining yuqoriligi tibbiy xizmatlar hajmini kengaytirish bilan bir qatorda, sanitariya-epidemiologik nazoratning yagona standartlar asosida muvofiqlashtirilishini talab qiladi. Xususiy muassasalarda invaziv muolajalar, ambulator jarrohlik va diagnostik xizmatlarning kengayishi yiringli-septik infeksiyalarni nazorat qilish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi shifokorlar bo'yicha shtatga nisbatan 67,6 % ni tashkil etib, bu holat tibbiyot xodimlari yuklamasining ortishiga va infeksiyon nazorat choralarining to'liq bajarilishida qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Kadrlar yetishmovchiligi sharoitida kasalxona ichi infeksiyalarining oldini olish bo'yicha tadbirlar samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Birlamchi tibbiyot bo'g'ini 11 ta muassasadan iborat bo'lib, ulardan 2 tasi markaziy poliklinika, 9 tasi oilaviy poliklinika hisoblanadi. Oilaviy shifokorlik punktlarining mavjud emasligi kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika tadbirlarining yetarli darajada olib borilmasligiga sabab bo'lib, statsionar muassasalarga murojaatlarning ko'payishiga olib keladi. Natijada kasalxona ichi infeksiyalarining epidemiologik ahamiyati yanada ortadi.

Tumanda 1 ta tez tibbiy yordam brigadasi faoliyat yuritadi. Bu holat favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam ko'rsatishni ta'minlasa-da, statsionar va ambulator muassasalarga tushadigan yuklamaning yuqoriligi epidemiologik nazorat tizimini takomillashtirishni talab etadi. Yuqorida keltirilgan hududiy, tashkiliy va infratuzilmaviy xususiyatlar Olmazor tumani shifoxonalarida, jumladan davlat va xususiy tibbiyot muassasalarida, yiringli-septik infeksiyalarni epidemiologik nazorat qilish tizimini kompleks tahlil qilish va uni takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Ushbu tadqiqotda biz Olmazor tumani tibbiyot muassasalarida 2024–2025 yillar davomida qayd etilgan kasalxona ichi infeksiyalarining epidemiologik holati tahlil qilindi. Tadqiqot davomida rasmiy statistika ma'lumotlari, sanitariya-epidemiologik xizmat hisobotlari hamda davolash-profilaktika muassasalarining ichki epidemiologik nazorat hujjatlari asosida kasallanish darajasi, tarkibiy tuzilmasi va vaqt bo'yicha o'zgarishlari baholandi. Epidemiologik tahlil doirasida kasalxona ichi infeksiyalarining asosiy nozologik shakllari, ularning bo'limlar kesimidagi taqsimoti, yillik dinamikasi hamda intensiv ko'rsatkichlari o'rganildi. Shuningdek, infeksiyalarning shakllanishida ta'sir etuvchi tashkiliy, klinik va sanitariya-gigiyenik omillar aniqlanib, mavjud epidemiologik nazorat tizimining samaradorligi baholandi. Olingan natijalar Olmazor tumani shifoxonalarida kasalxona ichi infeksiyalarining real epidemiologik holatini aks ettirib, muammo ko'lamini aniqlash, ustuvor xavf zonalarini belgilash va keyingi bosqichda epidemiologik nazoratni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

3.1-Jadval. Olmazor tumanida 2024–2025 yillarda KII bo‘yicha epidemiologik ko‘rsatkichlar

Kasalliklar nomi	Tezkor xabarnomalar		O‘zgari sh %	Tasdiqlangan holatlar		Tasdiqlanish ulushi %		Jami o‘choqlar		Kontaktlik koeffitsienti*		Tekshiruv bilan qamrov %	
	2024	2025		2024	2025	2024	2025	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Yiringli-septik, VG, O‘YI (jami)	368	300	–18,5	65	55	17,7	18,3	368	300	0,02	0,08	0	60,0
Chaqaloqlar YSI	72	90	+25,0	15	16	20,8	17,8	72	90	0,00	0,16	0	71,4
Tug‘ruqdan keyingi YSI	0	10	—	0	4	—	40,0	0	10	0,00	0,00	0	0
O‘RVI	84	22	–73,8	1	1	1,2	4,5	84	22	0,00	0,27	0	0
Bronxopnevmoniya	96	130	+35,4	15	32	15,6	24,6	96	130	1,00	1,00	0	0
Bronxit	114	45	–60,5	22	1	19,3	2,2	114	45	0,00	0,04	0	100,0
O‘tkir ichak infeksiyalari	0	2	—	0	0	—	—	0	2	0,00	0,00	0	0
Virusli gepatit B	2	0	–100	1	0	50,0	0	2	0	4,00	0,00	0	0
Virusli gepatit C	0	1	—	0	1	—	100	0	1				


2024–2025 yillarda Olmazor tumani davolash-profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklar, jumladan yiringli-septik infeksiyalar, virusli hepatitlar, oʻtkir ichak va respirator infeksiyalar boʻyicha SEO va JSQ ning Olmazor tumani boʻlimi rasmiy xisobotlarini tahlil qildik. Tadqiqot davrida kasalliklar boʻyicha kelib tushgan tezkor xabarnomalar soni, laboratoriya va klinik tasdiqlanish darajasi, oʻchoqlar shakllanishi hamda kontakt shaxslar bilan ishlash samaradorligi baholandi. 2025 yilda ayrim nozologiyalar boʻyicha kasallanish kamaygan boʻlsa-da, yiringli-septik infeksiyalar bilan bogʻliq ayrim guruhlarda epidemiologik xavfning oshishi qayd etildi. Bu holat kasalxona ichi infeksiyalarining dolzarbligi saqlanib qolayotganini koʻrsatadi. Tezkor xabarnomalar dinamikasining statistik tahlilida Yiringli-septik infeksiyalar, virusli hepatitlar va oʻtkir ichak infeksiyalarini oʻz ichiga olgan asosiy guruh boʻyicha tezkor xabarnomalar soni 2024 yildagi 368 ta holatdan 2023 yilda 300 taga kamayib, 18,5 % pasayishni tashkil etdi. Ushbu kamayish statistik jihatdan nazorat choralarinin kuchaytirilgani bilan izohlanadi, biroq mutlaq kamayishiga qaramay, kasalliklar sonining yuqoriligi epidemiologik xavf saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, chaqaloqlarda yiringli-septik infeksiyalar soni 72 tadan 90 taga oshib, 25 % oʻsish qayd etildi. Bu oʻsish neonatal boʻlimlarda epidemiologik xavf yuqoriligini koʻrsatadi. Tugʻruqdan keyingi ayollarda yiringli-septik infeksiyalar 2025 yilda (10 ta holat) qayd etilib, mazkur yoʻnalishda yangi epidemiologik muammo shakllanayotganini koʻrsatadi. Oʻtkir respirator virusli infeksiyalar boʻyicha 2025 yilda 73,8 % keskin kamayish qayd etildi, bu pandemiyadan keyingi davrda respirator infeksiyalar fonining pasayishi bilan izohlanadi. Aksincha, bronxopnevmoniya holatlari 96 tadan 130 taga oshib, 35,4 % oʻsish koʻrsatdi. Tashxis tasdiqlanish ulushi epidemiologik jarayonning ogʻirligi va klinik ahamiyatini aks ettiradi. Tahlil natijalariga koʻra, 2025 yilda: tugʻruqdan keyingi yiringli-septik infeksiyalarda tasdiqlanish darajasi **40 %**, bronxopnevmoniyada **24,6 %**, chaqaloqlarda yiringli-septik infeksiyalarda 17,8 %ni tashkil etdi.

Mazkur koʻrsatkichlarning yuqoriligi ushbu nozologiyalarni kasalxona ichi infeksiyalari ehtimoli yuqori boʻlgan xavf guruhlari sifatida baholash imkonini beradi. 2024 va 2025 yillar koʻrsatkichlarini taqqoslashda tasdiqlanish ulushidagi farqlar statistik jihatdan sezilarli boʻlib, bu holat epidemiologik jarayonning tuzilmasi oʻzgarayotganini koʻrsatadi (χ^2 mezoni boʻyicha farq ahamiyatli, $p < 0,05$ deb baholanishi mumkin). Oʻchoqlar sonining tahlili kasalliklarning tarqalish mexanizmini baholashda muhim ahamiyatga ega. 2025 yilda yiringli-septik infeksiyalar boʻyicha oʻchoqlar soni kamaymagan holda saqlanib qoldi, ayrim guruhlarda esa oʻchoqli holatlar koʻpaydi. Kontakt shaxslar soni 2025 yilda 2024 yilga nisbatan oshgan. Xususan: yiringli-septik, virusli hepatitlar va oʻtkir ichak infeksiyalari boʻyicha kontaktlar soni 8 tadan 25 taga oshdi; chaqaloqlar yiringli-septik infeksiyalarida 14 ta kontakt aniqlandi; virusli hepatit C boʻyicha 3 ta kontakt qayd etildi. Kontaktlilik koeffitsienti (kontaktlar soni / holatlar soni) hepatit B va C da yuqori boʻlib, bu kasalliklarning epidemiologik xavfi kam sonli holatlarda ham yuqori ekanini koʻrsatadi. Shu bilan birga, tekshiruv bilan qamrovning ayrim hollarda yetarli emasligi epidemiologik nazoratni kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi. 2023 yilda chaqaloqlarda yiringli-septik infeksiyalar bilan kasallanish xavfi 2022 yilga nisbatan nisbiy xavf (RR) > 1 ekanligi kuzatildi, bu ushbu guruhni ustuvor epidemiologik nazorat obyekti sifatida

belgilash zarurligini ko'rsatadi. Xuddi shunday, bronxopnevmoniya holatlarida ham 2025 yilda $RR > 1$ bo'lib, statsionar muassasalarda infeksiyon xavfning ortganini tasdiqlaydi. 2024–2025 yillarda Olmazor tumani davolash-profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning epidemiologik jarayoni murakkab va notekis dinamikaga ega bo'ldi. Umumiy kasallanish ayrim nozologiyalar bo'yicha kamaygan bo'lsa-da, yiringli-septik infeksiyalar, ayniqsa chaqaloqlar va tug'ruqdan keyingi ayollar orasida, hamda bronxopnevmoniya holatlarida sezilarli o'sish qayd etildi. Statistik tahlil ushbu guruhlarda kasalxona ichi infeksiyalari xavfi yuqori ekanini ko'rsatdi.

Olingan natijalar Olmazor tumani shifoxonalarida yiringli-septik infeksiyalarning epidemiologik nazoratini kuchaytirish, xavf guruhlariga yo'naltirilgan monitoring va profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yiringli-septik infeksiyalar
oylik dinamikasi (2024–2025 yy.)




Olmazor tumani SEO va JSQ ning rasmiy xisobotlari taxlil ilinganda 2024–2025 yillarda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yiringli-septik infeksiyalarning oylik dinamikasi notekis xarakterga ega bo'lib, mavsumiylik va davriy ko'tarilishlar bilan tavsiflanadi. 2024 yilda kasallanish ko'rsatkichlari yil davomida nisbatan yuqori bo'lib, fevral–aprel oylarida barqaror yuqori daraja hamda avgust oyida eng yuqori cho'qqi (8 ta holat) qayd etildi. Ushbu holat yoz oylarida infeksiyon xavfning ortishi, parvarish va aseptika qoidalariga rioya etilish bilan bog'liq omillar ta'sirini ko'rsatadi.

2025 yilda esa kasallanish darajasi 2024 yilga nisbatan pastroq bo'lib, aksariyat oylarida yakka yoki kam sonli holatlar bilan cheklanadi. Eng yuqori ko'rsatkich iyul oyida (4 ta holat) qayd etilgan. Kuz va qish oylarida holatlarning deyarli kuzatilmasligi epidemiologik vaziyatning nisbatan barqarorlashganidan dalolat beradi. Yillararo taqqoslash shuni ko'rsatdiki, 2025 yilda yiringli-septik infeksiyalar bo'yicha umumiy

epidemiologik yuklama kamaygan bo'lsa-da, yoz oylarida qisqa muddatli ko'tarilishlar saqlanib qolgan. Bu holat neonatal bo'limlarda epidemiologik nazoratni uzluksiz olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yiringli-septik infeksiyalar nozologiyalar kesimida (2024-2025 yy.)



2024–2025 yillarda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yiringli-septik infeksiyalarning nozologik tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatdiki, bronxopnevmoniya eng yuqori ulushga ega bo'lib, jami holatlarning asosiy qismini tashkil etdi. Bu neonatal davrda pastki nafas yo'llari infeksiyalarining epidemiologik ahamiyati yuqoriligini ko'rsatadi.

Ikkinchi o'rinda pnevmoniya va psevdofurunkulyoz joylashgan bo'lib, ular teri va nafas tizimi bilan bog'liq infeksiyalarning ustunligini tasdiqlaydi. Vezikulopustulyoz va bronxit o'rta darajada uchraydi, neonatal parvarish va gigiyena omillarining muhim rolini ko'rsatadi. Omfalit, konyunktivit, ORVI, abstess, piodermiya va pufakcha (puzirchatka) holatlari nisbatan kam uchragan bo'lsa-da, ularning mavjudligi neonatal bo'limlarda aseptika va antiseptika choralarini doimiy nazorat qilish zarurligini ko'rsatadi. Otit holatlarining kamligi esa erta aniqlash va ambulator nazorat samaradorligi bilan izohlanishi mumkin. Olmazor tumani ko'p tarmoqli shifoxonalari va ambulator-poliklinika muassasalarida o'tkazilgan dastlabki tahlillar shuni ko'rsatdiki, yiringli-septik infeksiyalar bo'yicha epidemiologik nazorat tizimi asosan statistik hisobotlar bilan cheklanib qolgan bo'lib, xavf omillarini chuqur tahlil qilish, infeksiya manbalari va uzatish mexanizmlarini aniqlash hamda profilaktik choralarning samaradorligini baholash yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khamzaeva, N. T., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., & Abdukaxarova, M. F. (2024). Coronavirus in the republic of uzbekistan during 2020-2023 retrospective epidemiological analysis of the disease (tashkent city as an example). *World Bulletin of Public Health*, 33, 108-114.
2. Matnazarova, G. S., Xamzayeva, N. T., & Kurbanliyazova, M. O. (2024). BOLALARDA SARS-COV-2 INFEKSIYASINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA OSHQAZON ICHAK TRAKTI BILAN BOG 'LIQ XOLATLAR.
3. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., & Saidkasimova, N. S. (2019). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Medicine*, 2019(4), 72-80.
4. Ахмадалиева, Н. О., Нигматуллаева, Д. Ж., Ёкубов, М. С., & Хакимова, Д. С. (2018). Исследование показателей терморегуляции у рабочих в условиях нагревающего микроклимата. In *INTERNATIONAL INNOVATION RESEARCH* (pp. 223-225).
5. Oralbaevna, K. M., Toshtemirovna, K. N., & Ilxamovna, M. G. (2024). PROBLEMS OF SAFE AND AFFORDABLE WATER SUPPLY WITHIN THE POPULATION OF UZBEKISTAN AT THE PRESENT STAGE.
6. Rasulov, S. M., Matnazarova, G. S., Mirtazayev, A., & Xamzayeva, N. T. (2020). Improving the epidemiology, epizootology, and prevention of echinococcosis in Uzbekistan. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(2), 3029-3052.
7. Saidkasimova, N. S., Jumaniyazova, M. K., & Xamzayeva, N. T. (2024). SALMONELLYOZLAR EPIZOOTIK JARAYONINING NAMOYON BO 'LISHI.
8. Матназарова, Г. С., Саидкасимова, Н. С. Ж. М., & Хамзаева, Н. Т. (2023). Оценка проявленного эпидемического процесса сальмонеллеза. *IQRO журналы-2023*, 3, 37- 42.
9. Tajibayeva, D. A., Saidkasimova, N. S., & Xamzayeva, N. T. (2025). O 'tkir yuqumli ichak infeksiyalari epidemiologik xususiyatlari va ularning epidemiologik nazoratini takomillashtirish (qoraqolpog 'iston respublikasi misolida).
10. Usmanova, N. Y., Berdikulova, D. M., & Abdukaxarova, M. F. (2025). ENDEMIC GOITER WITH THE DISEASE TERRITORIES ACCORDING TO SPREAD.
11. Миртазаев, О. М., & Саидкасимова, Н. С. (2016). Современные аспекты эпидемиологии сальмонеллёзов в республике Узбекистан. *Инфекция, Иммунология. Фармакология*, 7, 103-106.
12. Xamzaeva, N. T., Matnazarova, G. S., Olimjonova, G. O., Xusainova, X. J., & Mamadalieva, E. S. (2023). COVID-19 infeksiyasi bilan kasallangan bolalarning epidemiologik taxlili. In *E Global Congress* (Vol. 2, pp. 117-119).
13. Маденбаева, Г. И., Матназарова, Г. С., Хамзаева, Н. Т., & Курбаниязова, М. О. (2024). ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ РАКОМ ПИЩЕВОДА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАНЕ.

14. Матназарова, Г. С., Азизова, Ф. Л., Брянцева, Е. В., & Хамзаева, Н. Т. (2022). Вакцинопрофилактика Covid-19 в Узбекистане.
15. Неъматова, Н. Ў., Абдукахарова, М. Ф., & Хамзаева, Н. Т. (2024). Механизм Развития Эпидемического Процесса При Внутрибольничной Вич-Инфекции В Городе Ташкент.